


SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-sentyabr *)

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 9696,9 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,5 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1314,1 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 157,6 %), kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tovar aylanmasi 8382,8 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 102,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1206,5 mlrd. so`m (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 91,8 %)ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Jomboy, Narpay, Pastdarg'om va Samarqand tumanlarida qayd etildi.

*-dastlabki ma'lumot

Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)
(2019 yil yanvar-sentyabr)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 57,6 % ga o'sdi va 1314,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,6 % ulushiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 8382,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 102,4 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,4 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil yanvar-sentyabr




2019 yil yanvar-sentyabr



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**
(2019 yil yanvar-sentyabr)




Tahlil natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Nurobod (99,4 %), Bulung'ur (99,4 %), Tayloq (98,8 %), Qo'shrabot (99,2 %) va Narpay (98,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (36,0 %), Samarqand tumanida (35,3 %) va Pastdarg'om tumanida (5,5 %) kuzatildi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**
(2019 yil yanvar-sentyabr)


| Hudud nomi | Yirik korxonalar (mlrd. so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|---------------------------|-------------------------------|--|----------------------------------|--|
| Samarqand viloyati | 1314,1 | 157,6 | 8382,8 | 102,4 |
| Samarqand shahri | 1002,9 | 179,0 | 1784,9 | 88,1 |
| Kattaqo`rg`on shahri | 0,8 | 67,9 | 552,9 | 107,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Bulung`ur | 3,3 | - | 533,2 | 105,6 |
| Jomboy | 3,2 | - | 282,3 | 107,4 |
| Ishtixon | 10,7 | - | 400,7 | 104,4 |
| Kattaqo`rg`on | 4,8 | - | 400,3 | 105,3 |
| Narpay | 3,9 | - | 341,0 | 107,1 |
| Nurobod | 2,1 | - | 367,4 | 106,0 |
| Oqdaryo | 3,9 | - | 211,3 | 104,3 |
| Payariq | 5,4 | - | 364,2 | 106,1 |
| Pastdarg`om | 39,6 | 71,5 | 687,4 | 111,0 |
| Paxtachi | 3,4 | - | 333,8 | 105,5 |
| Samarqand | 196,4 | 91,8 | 359,8 | 121,3 |
| Tayloq | 3,4 | - | 276,1 | 105,7 |
| Urgut | 27,8 | 10,1 m. | 1170,8 | 105,1 |
| Qo`shrabot | 2,5 | - | 316,7 | 106,9 |

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**
(2019 yil yanvar-sentyabr)



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan Samarqand shahri 1784,9 mlrd. so'm, Urgut tumani 1170,8 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumani 687,4 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on shahri 552,9 mlrd. so'm, Bulung'ur tumani 533,2 mlrd. so'm, Ishtixon tumani 400,7 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on tumani 400,3 mlrd. so'm va Samarqand tumani 359,8 mlrd. so'mlik hajm bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasida
shahar va tumanlarning ulushi, (%)**
(2019 yil yanvar-sentyabr)



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2533,2 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,3 % ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (6250,5 ming. so'm), Samarqand shahri (5148,2 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (2914,4 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Oqdaryo (1374,5 ming. so'm), Tayloq (1414,4 ming. so'm) va Payariq (1501,0 ming. so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

(2019 yil yanvar-sentyabr)

| Hududlar nomi | Ming. so`m | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|---------------------------|---------------|--|
| Samarqand viloyati | 2533,2 | 105,3 |
| Samarqand shahri | 5148,2 | 106,0 |
| Kattaqo`rg`on shahri | 6250,5 | 105,8 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Bulung`ur | 2914,4 | 104,1 |
| Jomboy | 1686,9 | 105,7 |
| Ishtixon | 1648,4 | 104,8 |
| Kattaqo`rg`on | 1505,9 | 104,4 |
| Narpay | 1641,3 | 106,4 |
| Nurobod | 2496,2 | 104,4 |
| Oqdaryo | 1374,5 | 104,2 |
| Payariq | 1501,0 | 105,3 |
| Pastdarg`om | 2084,9 | 105,6 |
| Paxtachi | 2369,6 | 104,6 |
| Samarqand | 2242,0 | 106,8 |
| Urgut | 2401,6 | 104,6 |
| Tayloq | 1414,4 | 104,6 |
| Qo`shrabot | 2468,6 | 105,4 |


2019 yilning yanvar-sentyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 % ni tashkil etib, 217,9 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 108,8 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,8 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`yektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**Samarqand viloyatining
ulgurji savdo tovar aylanmasi
(2019 yil yanvar-sentyabr*)**

Joriy yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 4025,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 109,3 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'yektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra 2833,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,4 % ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 1192,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30,2 % ga o'sdi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida
yirik va kichik korxonalarning ulushi, (%)**



*-dastlabki ma'lumot

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-85-23
66-235-65-80**